QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA MAMLAKAT MO‘MINOVNA

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA JAMOAT TASHKILOTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1991–2021-yillar)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

O’UK 94:323.1(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of dissertation doctor of science (DSc)

Qodirova Mamlakat Mo‘minovna
Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda jamoat tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari (1991–2021-yillar) ……..

Кодирова Мамлакат Муминовна
Тенденции формирования и развития общественных организаций в Узбекистане в годы независимости (1991–2021 годы)…… 35

Kodirova Mamlakat Muminovna
Formation and development tendencies of public organizations in Uzbekistan during the years of independence (1991-2021)…….. 71

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..… 76

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA MAMLAKAT MO‘MINOVNA

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA JAMOAT TASHKILOTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1991–2021-yillar)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.2.DSc/Tar.302 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyumi)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Xasanov Akram Muminovich** tarix fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Kamolov Dilshod Pulatovich** tarix fanlari doktori (DSc), professor
	G‘afforov Shokir Safarovich tarix fanlari doktori, professor
	Norbo‘tayev Parda Panjiyevich tarix fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 raqamli Ilmiy kengashning **2026-yil 3-dekabr** soat **9:00** dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel.: (+998 75) 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (596-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 17-noyabrda tarqatildi
(2026-yil 17-noyabrdagi 49-raqamli reestr bayonnomasi).

B.J. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

N.N. Rajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

F.Sh. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asr jadal taraqqiyot, informatsion texnologiyalar rivoj topgan davr bo‘lishi bilan bir qatorda, ijtimoiy hayotda ko‘plab jamoat tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi yo‘lidagi muammolari mavjudligini ham namoyon qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT tomonidan qabul qilingan rasmiy hujjatlarda jamoat tashkilotlari institutlarining davlat bilan ijtimoiy sherikligi atrof-muhit muhofazasi, sog‘liqni saqlash, aholini ijtimoiy himoyalash, xotin-qizlar, yoshlar masalalari kabi ko‘plab sohalarda ijobiy natijalarni namoyon qilish barobarida uning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini ham keltirib chiqarmoqda.

Dunyoning yetakchi davlatlarida va ilmiy-tadqiqot markazlarida nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy sherikligi muammosi, jamiyatda inson haq-huquqlarini ta’minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, o‘zaro hamkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari orqali iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy sohalarda sheriklik istiqbollari kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari yanada qo‘llab-quvvatlash, davlat tshkilotlari bilan ijtimoiy rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “... erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlashni davom ettiramiz. Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratish zarur. Ayniqsa, mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo‘yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb etiladi. Bunday hamkorlikni, eng avvalo, ta’lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo‘jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi... Shu bilan birga, Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etishni taklif qilaman. Ushbu vakil quyi palata yig‘ilishlarida ishtirok etish, qabul qilinayotgan qonunlarga ta’sirchan jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik masalalarini kiritish bo‘yicha takliflar berish vakolatiga ega bo‘lishi zarur, deb hisoblayman” deb nodavlat notijorat tashkilotlarining bugungi kundagi ahamiyatini ta’kidlab o‘tadi. Bu o‘z navbatida nodavlat notijorat tashkilotilarini fuqarolik jamiyati qurish jarayonidagi ishtirokini hamda respublika ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardagi o‘rnini belgilab berilayotganligidan dalolat beradi”[1]. Shu jihatdan olib qaralganda O‘zbekistonda jamoat tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari dolzarblik kasb etadi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 30-dekabr 2020-yil – Тошкент: O‘zbekiston ovozi. № 47 (32.642) 2020.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi, PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi, 763-I-son “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, 2014-yil 28-avgustdagi O‘zRQ–376-son “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, 2019-yil 10-maydagi, O‘zRQ–537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi, PF–5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 4-martdagi, PF–6181-son “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[2] farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatining tarixi, maqsad va vazifalari, istiqbollari kabi muhim mavzularga oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlari tomonidan olib borilmoqda. Ular orasida birinchi navbatda Stenford universiteti tibbiyot maktabi (AQSh), Garvard tibbiyot maktabi (AQSh), Braun universitetining Uorren Alpert tibbiyot maktabi (AQSh), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Gumboldt universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika tadqiqotlari instituti (Germaniya), Indiana universitetining Blyumingtondagi Markaziy Yevrosiyo tadqiqot departamenti (AQSh), Pressaning Ochik Universiteti (AQSh), Rossiya Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti alohida e’tiborga loyiqdir.

Jahonda jamoat tashkilotlari faoliyati bilan shug‘ullanuvchi AQShning Djon Xopkins universiteti huzuridagi fuqarolik jamiyatini o‘rganish markazi, Kaliforniya universitetining fuqarolik jamiyati tadqiqotlari markazi, Iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabining fuqarolik jamiyati markazi, Rossiya Oliy Iqtisodiyot maktablari huzuridagi fuqarolik jamiyatining va notijorat sektorni o‘rganish markazlari faoliyat olib bormoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. 1991–2021-yillarda O‘zbekistonda jamoat birlashmalarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari masalalari kam o‘rganilgan muammolardan biridir. Mavzuning o‘rganilishini shartli ravishda 2 guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi, PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi, 763-I-son “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 28-avgustdagi O‘zRQ-376-son “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 10-maydagi O‘zRQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi, PF–5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 4-martdagi, PF–6181-son “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar,

2. Mavzuning xorij tarixshunosligi.

Birinchi guruhga S. Jo‘rayeva, A. Gonorskaya[3], Sh. Nazarov[4], Sh. Asyanov va M. Kulikova[5], N. Qosimova[6], A. Karimov[7], M.A. Umarova[8], Ya.P. Asminkin[9], A. Insopov[10] monografiyalari va o‘quv qo‘llanmalarida hamda D.R. Xolmanova[11], M. Shamsiyeva[12], B.A. Narimonov[13]larning tadqiqot ishlarini keltirib o‘tish joizdir. Ushbu tadqiqotlarda umumiy va asoslantirilgan fikrlari bayon etilgan. S. Jo‘rayevaning tadqiqot ishida fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida ko‘proq siyosiy-huquqiy jihatiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, A. Insopov monografiyasida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanish va rivojlanishi ko‘rib chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi guruhga, ya’ni Xorijiy olimlardan Morris-Suzuki T., Daviyes T.R, Cernea M.M., Tvedt T., Tesseur W., Matveeva T.D., Ospanova D.K., Kalinina O.Ye., Ford M.T., Abramova O.R., Kameneva V.M., Tarxanova Ye.G., Lewis D., Bostock J., Teicher J., Liang X., Joachim J., Billis D., Awasthy P., Anheiyer H.K., Toyepler S. va boshqalarning tadqiqot ishlarida nohukumat tashkilotlar va “uchinchi sektor”ning jamiyat hayotidagi o‘rni, zamonaviy tendensiyalari, volontyorlik harakatlari, ushbu tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy asoslariga oid rivojlangan davlatlar tajribasi tadqiq qilingan. Shunga qaramasdan, zamonaviy sharoitlarda nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkiliy-huquqiy asoslarini konstitutsiyaviy va ma’muriy huquq nuqtayi nazaridan takomillashtirish, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi va xalqaro standartlarni tahlil qilgan.

Bugungi kungacha bir qator olimlar tomonidan jamoat birlashmalarining alohida shakllari, masalan, siyosiy partiya, diniy tashkilotlar va boshqalar bilan bog‘liq muammolar tadqiq etilgan. Lekin aynan nodavlat notijorat tashkilotlarning

---

[3] Gonorskaya A.V. Obespecheniye zanyatosti trudovых resursov Respubliki Uzbekistan s ispolzovaniyem potensiala negosudarstvennых nekommercheskix organizatsiy (na primere jenskoy zanyatosti): Dis…. kan.ekon. nauk. – Toshkent, 2002. – C. 118.

[4] Nazarov Sh.N. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli (nazariy va huquqiy masalalar): Avtoref.dis. yurid.fan nom. – Toshkent, 2009. – B. 17.

[5] Asyanov Sh.M., Kulikova M.Sh. Nodavlat notijorat tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning faoliyatiga doir qo‘llanma. – Toshkent: Huquqiy muammolarni o‘rganish markazi. 2008.

[6] Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining roli. – Toshkent: OOO. “Invite Design”, 2015.

[7] Mahalliy hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklikning samarali tizimini shakllantirish: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari. Mas’ul muharrir Karimov A. – Toshkent: Munis design group, 2016.

[8] Umarova M.A. Jamiyatimizni demokratlashtirishda jamoat tashkilotlarining o‘rni. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda va barkamol avlodni voyaga yetkazishda nodavlat va jamoat birlashmalariningg roli. – Andijon: Ahmadbek, 2010.

[9] Asminkin Ya.P. O‘zbekiston ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari. – Toshkent, 2000.

[10] Insopov A.A. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanish va rivojlanishi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2024. – 169 b.

[11] Xolmonova D.R. O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat birlashmalari tizimidagi o‘rni. Yu.f.n. ilmiy daraja olish uchun diss. – Toshkent, 2009.

[12] Shamsiyeva M. O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni (1991–2010 yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy daraja olish uchun tayyorlagan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019.

[13] Narimonov B.A. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy daraja olish uchun tayyorlagan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2020.

jamoat birlashmalari tizimidagi o‘rni va bu borada o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan muammolar to‘laligicha tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilmagan.

Shuningdek, ko‘pgina nodavlat notijorat tashkilotlar faqatgina davlat qo‘llab-quvvatlashi asosidagina faoliyat yuritmoqda, moliyaviy muammolar yechimining boshqa yo‘llarini, mablag‘ jalb qilishning usullarini amalga kiritish va bu boradagi huquqiy asoslarni takomillashtirish zarurati kelib chiqadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi bevosita Qarshi davlat universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi ilmiy rejalari bilan bog‘liq.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2021-yillarda O‘zbekistonda jamoat birlashmalarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini xolisona tarzda yangicha tafakkur asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: O‘zbekistonda jamoat tashkilotlari faoliyati tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, mavzu manbashunosligi va tarixshunosligini tahlil qilib, uning mohiyatini ochib berish;

O‘zbekistonda jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini tahlil qilish;

jamoat tashkilotlari – fuqarolik jamiyatining muhim instituti ekanligini o‘rganish;

jamoat tashkilotlarining jamoatchilik nazorati tizimini erkinlashtirishdagi vazifalarini o‘rganish;

kasaba uyushmalarining zamonaviy O‘zbekiston siyosiy hayotidagi o‘rni to‘g‘risida tushunchalar keltirib o‘tish;

siyosiy partiyalarning kelib chiqishi, vazifalari va turlarini yoritib berish;

ayollarni jamiyatdagi rolini kuchaytirishda fuqarolik jamiyati institutlaring o‘rni va rolini ko‘rsatib berish;

atrof-muhit muhofazasi, ekologik holat va sog‘liqni saqlash sohasida nodavlat notijorat tashkilotlar ijtimoiy sherikligi to‘g‘risida tushunchalar keltirib o‘tishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini 1991–2021-yillarda O‘zbekistonda jamoat birlashmalarining shakllanishi va tendensiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida 1991–2021-yillarda O‘zbekistonda jamoat birlashmalarining shakllanishi va tendensiyasida yuz bergan o‘zgarishlar jarayonlari belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritish jarayonida tarixiylik, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mustaqillik yillarida jamoat tashkilotlari tarixiga oid ilmiy adabiyotlar mazmuni va yondashuvlariga ko‘ra uch bosqichga ajratilgan: 1991–2000, 2001–2016 va 2017–2021-yillar. Har bir bosqichda “jamoat birlashmasi”, “nodavlat notijorat tashkiloti” va “fuqarolik jamiyati instituti” tushunchalariga yondashuvning o‘zgarishi asoslab berilgan. O‘zbekiston Milliy arxivi, Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari hamda jamoat tashkilotlarining joriy arxiv hujjatlaridan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan;

jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning 1991–2021-yillardagi evolyutsiyasi uch bosqichda tahlil qilingan. Uning sovet davri tartibga solish modelidan ruxsat berish va nazorat qilish tamoyiliga, keyinchalik esa davlat va jamiyat sherikligi tamoyiliga o‘tish jarayoni ochib berilgan. Bu jarayonning asosiy bosqichlari quyidagi hujjatlar bilan belgilangan: 1991-yilgi “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun, 1999-yilgi NNTlar to‘g‘risidagi qonun, 2013-yilgi “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun, 2018-yil 4-maydagi PF–5430-son farmon va 2021-yilgi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Har bir hujjatning tashkilotlar soniga ta’siri statistik ma’lumotlar bilan dalillangan;

jamoat tashkilotlarining davlat bilan munosabat modeliga ko‘ra mualliflik tipologiyasi ishlab chiqilgan. Unda davlat tashabbusi bilan tuzilgan, kasbiy, milliy-madaniy, ijtimoiy-xayriya va huquq himoyasi tashkilotlari ajratilgan. 1991–2021-yillarda ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar sonining dinamikasi, hududiy taqsimoti va tugatilgan tashkilotlar ulushi ilk bor tizimli tahlil qilingan. Tahlil natijasida 2005–2006-yillarda sonning keskin kamayishi va 2017-yildan keyin o‘sishi sabablari aniqlangan;

kasaba uyushmalarining sovet davridagi davlat tizimining tarkibiy qismi maqomidan mustaqil jamoat tashkilotiga aylanishi bosqichma-bosqich ko‘rsatib berilgan. Bu jarayonning uzviylik va uzilish jihatlari arxiv hujjatlari asosida isbotlangan. Kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2017–2021-yillarda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda paxta yig‘im-terimida majburiy mehnatni monitoring qilishdagi ishtiroki ilk bor tarixiy tahlil obyekti sifatida o‘rganilgan;

ayollar jamoat tashkilotlarining davlat gender siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Bu tashkilotlarga Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Tadbirkor ayol” uyushmasi va “Olima ayollar” uyushmasi kiradi. Ularning 2019-yilgi gender tenglik va xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlarni ishlab chiqish jarayonidagi ishtiroki hujjatlar asosida aniqlangan. Ayol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining natijalari viloyatlar va respublika miqyosidagi ma’lumotlar bilan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamoat tashkilotlari – fuqarolik jamiyatining muhim instituti ekanligini tahlil qilingan, uning mazmun-mohiyati ochib berilib, O‘zbekistonda jamoat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi va huquqiy asoslari chuqur tahlil qilinishi asosida yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

jamoat tashkilotlari – fuqarolik jamiyatining muhim instituti ekanligi o‘rganilgan hamda yoritib berilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazorati tizimini erkinlashtirishdagi vazifalari tahlil qilingan;

kasaba uyushmalarining zamonaviy O‘zbekiston siyosiy hayotidagi o‘rni masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

siyosiy partiyalarning kelib chiqishi, vazifalari va turlari chuqur tahlil qilingan;

ayollar jamoat tashkilotlari va ularning jamiyat rivojidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan;

atrof-muhit muhofazasi, ekologik holat va sog‘liqni saqlash sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtiroki yoritib berilgan;

mavzuga oid ko‘plab arxiv hujjatlari va boshqa birlamchi ma’lumotlar ilk marta ilmiy muomalaga kiritilgan;

1991–2021-yillarda O‘zbekistonda jamoat birlashmalarining shakllanishi va tendensiyasiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy adabiyotlar hamda arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi, birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Bakalavr-tarixchi talabalar uchun “O‘zbekiston tarixi”, “O‘zbek davlatchiligi tarixi” fanlari hamda magistratura bosqichi “O‘zbekiston tarixi” mutaxassisligi bo‘yicha “O‘zbekiston tarixi” fanidan o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarni yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarix fanining Sivilizatsiyalar tarixi, O‘zbekiston tarixi, Tarixiy geografiya, Manbashunoslik sohalaridagi fanlararo yangicha yondashuvlar va ilmiy yo‘nalishlarni yaratish vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, o‘sha davr tarixiga oid ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtirishga imkon berishda ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

mustaqillik yillarida jamoat tashkilotlari tarixiga oid ilmiy adabiyotlar mazmuni va yondashuvlariga ko‘ra uch bosqichga ajratilgan: 1991–2000, 2001–2016 va 2017–2021-yillar. Har bir bosqichda “jamoat birlashmasi”, “nodavlat notijorat tashkiloti” va “fuqarolik jamiyati instituti” tushunchalariga yondashuvning o‘zgarishi asoslab berilgan. O‘zbekiston Milliy arxivi, Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari hamda jamoat tashkilotlarining joriy arxiv hujjatlaridan foydalanilgan (O‘zbekiston nodavlat notijorat milliy assotsiatsiyasi 2024-yil 22-iyuldagi 01-497/24-son ma’lumotnomasi). Natijada nodavlat notijorat tashkilotlarini demokratik fuqarolik jamiyatini qurishdagi ahamiyati muhim ekanligini asoslab berish imkonini bergan;

jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning 1991–2021-yillardagi evolyutsiyasi uch bosqichda tahlil qilingan. Uning sovet davri tartibga solish modelidan ruxsat berish va nazorat qilish tamoyiliga, keyinchalik esa davlat va jamiyat sherikligi tamoyiliga o‘tish jarayoni ochib berilgan. Bu jarayonning asosiy bosqichlari quyidagi hujjatlar bilan belgilangan: 1991-yilgi “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun, 1999-yilgi NNTlar to‘g‘risidagi qonun, 2013-yilgi “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun, 2018-yil 4-maydagi PF–5430-son farmon va 2021-yilgi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Har bir hujjatning tashkilotlar soniga ta’siri statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasini yillik rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2023-yil 2-martdagi №6-73-son ma’lumotnomasi). Natijada jamoat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti

sifatida rivojlanishi va huquqiy asoslarini, jamoat tashkilotlarining jamoatchilik nazorat tizimini erkinlashtirishdagi vazifalar bo‘yicha aniq xulosalar chiqarish imkonini bergan;

jamoat tashkilotlarining davlat bilan munosabat modeliga ko‘ra mualliflik tipologiyasi ishlab chiqilgan. Unda davlat tashabbusi bilan tuzilgan, kasbiy, milliy-madaniy, ijtimoiy-xayriya va huquq himoyasi tashkilotlari ajratilgan. 1991–2021-yillarda ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar sonining dinamikasi, hududiy taqsimoti va tugatilgan tashkilotlar ulushi ilk bor tizimli tahlil qilingan. Tahlil natijasida 2005–2006-yillarda sonning keskin kamayishi va 2017-yildan keyin o‘sishi sabablariga oid ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali davlat muassasasining 2023-yil 19-apreldagi 02-29-587-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining o‘rni, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish istiqbollari, tadbirkorlik subyektlariga huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish zarur ekanligi ko‘rsatib berilgan;

kasaba uyushmalarining sovet davridagi davlat tizimining tarkibiy qismi maqomidan mustaqil jamoat tashkilotiga aylanishi bosqichma-bosqich ko‘rsatib berilgan. Bu jarayonning uzviylik va uzilish jihatlari arxiv hujjatlari asosida isbotlangan. Kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2017–2021-yillarda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda paxta yig‘im-terimida majburiy mehnatni monitoring qilishdagi ishtirokiga oid ma’lumotlardan O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi rejalarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining 2023-yil 21-iyundagi №SHD-3/140-son ma’lumotnomasi). Natijada kasaba uyushmalari faoliyati, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, mehnat jamoalari hayoti va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni bartaraf etishga xizmat qilgan;

ayollar jamoat tashkilotlarining davlat gender siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Bu tashkilotlarga Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Tadbirkor ayol” uyushmasi va “Olima ayollar” uyushmasi kiradi. Ularning 2019-yilgi gender tenglik va xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlarni ishlab chiqish jarayonidagi ishtiroki hujjatlar asosida aniqlangan. Ayol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining natijalari viloyatlar va respublika miqyosidagi statistik ma’lumotlardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasini yillik rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2023-yil 2-martdagi №6-73-son ma’lumotnomasi). Natijada ayollar jamoat tashkilotlarining ijtimoiy sherikligi, ayollarni jamiyatdagi rolini kuchaytirishda o‘rni va roli muhim ekanligini asoslab berish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 3 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 10 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 200 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Ish fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar ham kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbekistonda jamoat tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi mavzusining nazariy-metodologik asoslari, mavzu manbashunosligi hamda tarixshunosligi**" deb nomlanib, uning birinchi paragrafi *"O'zbekistonda jamoat tashkilotlari faoliyati tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari"* dab ataladi hamda unda O'zbekistonda jamoat tashkilotlari tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari hamda mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligiga oid fikr-mulohazalar, mustaqillik yillarida tarix faniga bo'lgan e'tibor kuchaytirilib, uni asl manbalarga tayangan holda tadqiq etish va o'rganish zaruriyati kelib chiqqanligi, tarixni o'rganishning yangi metodologiyasi, usul va tamoyillarini ishlab chiqish hamda tarixiy voqelikni yangicha yondashuvlar tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning nazariy metodologik asoslarini ishlab chiqishda jahonning mashhur olimlaridan M. Blok[14], E. Frimen[15], A.Dj. Toynbi[16], L. Fevr[17], K. Yaspers[18], I.D. Kovalchenko[19], shuningdek, o'zbek olimlaridan D.A. Alimova[20], M. Ishoqov[21] va boshqa olimlarning asarlaridan foydalanildi.

Jamoat tashkilotlari tarixini tadqiq etishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan olimlarning ilmiy asarlari keng tahlil etildi. Bu, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy va statistik ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida qo'llanildi. Ushbu usulning

[14] Блок М. Апология истории, или Ремесло историка. – Москва, 1986.
[15] Фримен Э. Методы изучения истории / Пер. с англ. – Москва, 1986.
[16] Тойнби А.Достижение истории. – Москва, 1991.
[17] Февр Л. Бои за историю. – Москва, 1991.
[18] Ясперс К. Смысл и назначение истории. – Москва, 1991
[19] Ковальченко И.Д. Методы исторического исследования. – Москва, 2003.
[20] Алимова Д.А. История как история, история как наука. – Ташкент, 2008. Т 1. История и историческое сознание. – С. 280.
[21] Исҳоқов М. Тарихий жараён ва холислик мезони: тарих ва тараққиёт. №1. – Тошкент: Тафаккур, 1999. – Б. 30–31.

qo‘llanilishi natijasida jamoat tashkilotlari sonining boshqa hududlarga nisbatan ko‘p yoki kamligi aniqlandi.

Dissertatsiyada qiyosiy, tizimli va miqdoriy tahlil, retrospektiv, muammoviy-xronologik, tarixiy tadrijiy kabi usullardan va fanlararo yondashuvdan foydalanildi.

Tarix fani nazariy metodologiyasi murakkab masalalardan bir bo‘lib, uning yechimi manbashunoslik, tarixshunoslik, tarixiy qarashlar, falsafa va falsafa tarixi, shuningdek, boshqa fanlar metodlariga ham bog‘liqdir. Tadqiqotni bayon etishda milliy istiqlol g‘oyasiga muvofiq nazariy metodologiya, metodlar, tamoyillar va yondashuvlar tanlandi. XX asrning birinchi yarmida tarix fani metodologiyasining rivojlanish an’analari pozitivizmning tanqidi, nemis tarix falsafasi, xususan, V. Diltey, G. Zimmel i F. Meyneke[22] kabi olimlar qarashlarida o‘z ifodasini topdi.

XX asrning ikkinchi yarmida tarix fani predmetining maydoni kengayib bordi, uni nazariy-metodologik qayta qurollantirish uchun harakatlar boshlandi. Bu davrda mintaqalar tarixi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida paydo bo‘ldi, ilmiy muomalaga kundalik tarix, mentallik tarixi, total tarix singari tushunchalar kirib keldi. Tarix fani metodologiyasining shu yo‘nalishdagi keyingi rivojida F. Aryes, R. Mandru, J. Dyubi va F. Brodel[23] kabi olimlarning g‘oyalari katta rol o‘ynadi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi *“Mavzu manbashunosligi va tarixshunosligi tahlili”* deb nomlanadi. Ushbu paragrafni yoritishda arxiv hujjatlari, rasmiy hujjatlar va materiallar, statistik to‘plamlar, davriy matbuot materiallari va og‘zaki tarix ma’lumotlari muhim manba vazifasini o‘tadi. Ularning aksariyatidan hali keng jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan juda ko‘plab yangi ma’lumotlar olinib ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Mavzuning tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamoat tashkilotlari sohasi jamiyat hayotining asosiy bo‘g‘ini sifatida ijtimoiy-gumanitar soha tadqiqotchilarining doimiy diqqat markazida turgan va mavzuga doir qator ilmiy maqolalar, risola va monografiyalar nashr etilgan.

M.T. Normuradov va O. Ergashevlarning “Jamoatchilik nazorati va ijtimoiy boshqaruv tizimi” monografiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning fundamental asarlari, farmon va qarorlarida ilgari surilgan konseptual g‘oyalari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlari tegishli qonunlarga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga muvofiq davlat boshqaruvi organlari faoliyati tizimi ustidan samarali jamoatchilik nazoratini

[22] Дильтей В. Собрание сочинений в 6 тт. Под ред. А.В. Михайлова и Н.С. Плотникова. Т. 1: Введение в науку о духе: Опыт полагания основ для изучения общества и истории / Пер. с нем. под ред. В.С. Малахова. – Москва: Дом интеллектуальной книги, 2000; Дильтей В. Наброски к критике исторического разума, /В. Дильтей// Вопросы философии. – 1988. № 4. – С. 135 – 152; Г.Зиммель. Философия культуры. – Москва: Центр гуманитарных инициатив, 2013; Ф. Мейнеке. Возникновение историзма. – Москва: РОССПЭН, 2004.

[23] Арьес Ф. Время истории. – Москва: ОГИ, 2011; Мандру Р. Франция раннего Нового времени, 1500–1640. Эссе по исторической психологии. – Москва: Территория будущего, 2010; Дюби Ж. – Время сборов. Искусство и общество 980–1420 годов. – Москва: Ладомир, 2002; Бродель Ф. Грамматика цивилизаций. – Москва: Весь мир, 2008.

amalga oshirishining ijtimoiy tizimini takomillashtirishdagi roli bilan bog‘liq masalalar o‘rganib chiqilgan.

Jamoat tashkilotlari mavzusi xorij mualliflarining asarlarida ham o‘z aksini topgan. Xorijiy adabiyotlarni ikki guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni MDH davlatlari va xorij mualliflari asarlari. Hamdo‘stlik davlatlarida jamoat tashkilotlari mavzusi ilmiy maqolalar, risola va monografiya, dissertatsiyalarda ko‘plab o‘rganilgan.

Jamoat tashkilotlari mavzusi bo‘yicha xorijda ham ilmiy maqolalar, risola va monografiya, dissertatsiyalar nashr qilingan bo‘lib, ularda jamoat tashkilotlarining tarixiy jarayonlari, rivojlanishi, maqsad va vazifalariga keng e’tibor qaratilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixi fani yangi uslubiy tamoyillar asosida yaratilgan asarlar bilan boyib bordi. Ularda jamoat tashkilotlari faoliyati mavzusiga bir tomonlama yondashuv uslubidan voz kechilib, umumbashariy qadriyatlar va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan ijtimoiy hayot tarixining turli davrlari va yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan ilmiy maqolalar[24], monografiyalar[25] chop etildi hamda dissertatsiyalar himoya qilindi[26].

Bu fikr-mulohazalar O‘zbekistonda jamoat tashkilotlari mavzusi tarixshunosligi masalasi shu kunga qadar maxsus tadqiq etilmagan va o‘z yechimini topmagan, deyishimizga asos bo‘ladi.

Tadqiqotning turli bo‘limlarini tadqiq etishda foydalanilayotgan manbaning xarakteri, ko‘rinishi va mazmuniga, dissertatsiyada qo‘yilgan vazifalar kabi omillarga e’tibor qaratildi. Tadqiqotda qo‘yilgan muammolarni ochib berishda qo‘llanilgan metod va yondashuvlar metodologiya masalasidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tish hamda tadqiqotning asosiy vazifalarini yechishda yordam beradi.

Dissertatsiyaning II bobi **“O‘zbekistonda jamoat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari va tashkiliy tuzilishi”,** deb nomlanib, unung birinchi paragrafi *“O‘zbekistonda jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari”* deb atalib, unda davlat va jamiyat qurilishini isloh qilish va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan jamoatchilik

---

[24] Жўраева С. Фуқароларнинг сиёсий маданиятини юксалтиришда фуқаролик жамияти институтларининг роли //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари, 2009. №4. – Б. 23–27.; Комилова М. Ижтимоий шериклик муносабатлари. // Миллий тикланиш, 2016. №16 (388). – Б. 4.; Муродов С. Давлат ва нодавлат ташкилотларининг ўзаро ҳамкорлиги // Жамият ва бошқарув, 2006. №4. – Б. 75.; Муродов С. Нодавлат секторни модернизациялаш ва эркинлаштириш // Жамият ва бошқарув. 2009. №3. – Б. 22–24., Махсумов С. Жамоатчилик экологик назорати ва НТТ. // Халқ сўзи, 2014. № 188 (6118). – Б. 3.; Ҳусейнова А. Аёллар фаоллигини оширишда нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ўрни // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари, 2010. №3. – Б. 46–50.

[25] Нормурадов М., Эргашев А. Конституция – шахс, жамият, давлат. – Тошкент, 2013., Нормурадов М., Эргашев О. Жамоатчилик назорати ва ижтимоий бошқарув тизими. – Қарши. 2019.

[26] Бегматов Ш. Фуқаролик жамиятини ривожлантиришда ижтимоий шериклик ва консенсуснинг роли. сиёсий фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даража олиш учун дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 43 б., Маматов Х.Т. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари: Автореф.дис.юрид.фан ном. – Тошкент, 2011. – 41 б.; Назаров Ш.Н. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришда жамоат ташкилотларининг роли (назарий ва ҳуқуқий масалалари): Ю.ф.н. илмий даража олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2009. – 143 б., Ҳолмонова Д.Р. Ўзбекистон Республикасида нодавлат нотижорат ташкилотларнинг жамоат бирлашмалари тизимидаги ўрни: Ю.ф.н. илмий даража олиш учун дисс. – Тошкент, 2009. – 143 б., Шамсиева М. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишда давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ўрни (1991–2010 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даража олиш учун дисс. Автореф. – Тошкент, 2019. – 48 б.

nazoratini amalga oshirish tizimidagi vazifalarni yanada kuchaytirishda barcha darajadagi davlat vakillik organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat partiyalarning o‘rni va rolining tobora oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ekspertlarning fikricha, mamlakatni demokratik asosda rivojlantirish, inson erkinliklari, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat organlarining faoliyatini tizimli nazorat qilishdan iboratdir. Fuqarolar nodavlat notijorat tashkilotlari tarkibida o‘zining keng huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshiradilar.

Davlat va jamiyat qurilishini isloh qilish va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tizimidagi vazifalarni yanada kuchaytirishda barcha darajadagi davlat vakillik organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat partiyalarning o‘rni tobora ortib borayotganligini kuzatish mumkin bo‘ladi. Mustaqillik yillarida yurtimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoat birlashmalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining mavqeini yanada kuchaytirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi, amaldagi qonunlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi hamda Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolar har bir qilayotgan harakatida va faoliyatida, eng avvalo, shaxsiy manfaatlaridan emas, balki davlat manfaatlaridan kelib chiqib fikrlashi va ish yuritishi kerak bo‘ladi. Shu sababli, fuqarolik jamiyatini yaratish, fuqarolardan siyosiy, huquqiy, ma’naviy yuksaklikni talab etadi.

So‘nggi yillarda jamoatchilik nazorati institutini rivojlantirish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoidalarga asoslanib, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”, “Parlament nazorati to‘g‘risida”, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy faoliyati to‘g‘risida”, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Elektron hukumat to‘g‘risida”, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”, “Davlat boshqaruvi tizimini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarining qabul qilinishi jamoat birlashmalarining mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunida ham nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi, uni tashkil qilish, ta’sis hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, qayta tashkil qilish, tugatish va boshqa ko‘plab masalalar bo‘yicha normalar ifodalangan.

Fuqarolik jamiyati bu – jamoatchilik tizimi bo‘lib, o‘zini o‘zi boshqarishga asoslangan jamiyat tushuniladi. Davlat rivojlanib borgan sari boshqaruvning turli

xil vazifalarini xalqqa topshirib, ya’ni o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlarini rivojlantirib va takomillashtirib boradi. Mazkur tizimni shakllantirishning muhim mezoni demokratik jarayonlarni faollashtirish, keng xalq ommasini boshqarishga jalb qilishni amalga oshirishni nazarda tutadi[27].

2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 12-moddasiga muvofiq: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”[28].

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bir qator rivojlangan demokratik davlatlarning tajribasini o‘rganib, tahlil qilgan holda, qolaversa, o‘zimizning yuz yillar davomida shakllangan urf-odat, an’analarimiz va boy tariximizga asoslangan holda ishlab chiqilgan[29].

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi *“Jamoat tashkilotlari – fuqarolik jamiyatining muhim instituti”* deb nomlanib, qadimgi sivilizatsiyalarning ilk ibtidolari paydo bo‘lishidan oldin ham odamlar urug‘lar va qabilalar doirasida birlashgan. Klassik xarakterga ega bo‘lgan jamiyatning, davlat, keyin esa siyosiy institutlar tomonidan e’lon qilingan birlashgan xalq va madaniy manfaatlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari va birlashmalarining urini beqiyos. Hududimizda hunarmandchilik va mahalliy, kasb-hunar va bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga muljalangan boshqa uyushmalar muhim o‘rin tutgan. Ular mintaqaviy va davlatlararo savdo, madaniy va boshqa aloqalarni rivojlantirishga yordam berdi.

XIX asrga kelib O‘zbekiston hududida siyosiy, kasbiy, madaniy va boshqa manfaatlarga ixtisoslashgan uyushmalarning jadal o‘sishi kuzatildi. Biz ko‘rib chiqayotgan mamlakatimiz tarixining muhim bosqichi XX asr boshlaridir. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot davri jamoat birlashmalari faoliyatida mutlaqo yangi davr sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotchi A. Jalilov ta’kidlaganidek, bu davrni avvalgi bosqichlar bilan hech qanday taqqoslab bo‘lmaydi[30].

O‘tgan davr mobaynida jamoat tashkilotlarini faoliyat yuritishi uchun uning huquqiy asoslarini ta’minlash maqsadida milliy qonunchilikda ham alohida e’tiborga molik ishlar amalga oshirildi.

Respublikada nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat ko‘rsatishlari uchun huquqiy hujjatlar turkumiga birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kiradi. Shu bilan birga, Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa huquqiy hujjatlar hisoblanadi, bundan tashqari, Xalqaro miqyosda tan olingan va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan bir qator ratifikatsiya qilingan hujjatlar kiradi.

---

[27] ЎзМА, М 170-жамғарма, 1-рўйхат, 133-иш, 1-варақ.
[28] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
[29] ЎзМА, М 170-жамғарма, 1-рўйхат, 133-иш, 3-варақ.
[30] Жалилов А. ва бошқалар. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2015. – Б. 169.

Aynan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlar jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etilishi qayd etib o‘tiladi va bu tashkilotlarning huquqiy jihatdan faoliyatlarini kafolatlab beradi. Shu bilan birga Konstitutsiyaning 72-moddasida “davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi” deya belgilanishi davlat tomonidan bu tashkilotlarning to‘la huquqiy kafolatlari ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ular aholining muayyan ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etishni ta’minlovchi muhim amaliy vositalardan biri hisoblanadi;

ular fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi darajasini oshirish, mamlakatimizdagi demokratik o‘zgarishlar bilan bog‘liq jarayonlar ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishning amaliy omilidir;

ular haqli ravishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini ta’minlash jarayonida asosiy vosita hisoblanadi;

o‘z milliy o‘zligini anglash, keng aholining siyosiy-madaniy madaniyatini yuksaltirish, milliy o‘zlikni anglash darajasini oshirish, keng omma e’tiboriga milliy g‘oya va milliy istiqlolning mohiyati yetkazish kabi pirovard maqsadlari bo‘lgan jarayonni ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi;

davlatning teng huquqli ijtimoiy sheriklari sifatida ularning faol ishtirokisiz butun jamiyat uchun dolzarb bo‘lgan masalalarni amalga oshirish jarayonini tasavvur qilib bo‘lmaydi;

har tomonlama rivojlangan nodavlat notijorat tashkilotlari tizimi jamiyatda manfaatlar uyg‘unligini shakllantirish va izchil mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

Tadqiqotchilarning fikricha, har qanday tashkiliy tuzilmaning asosiy sifat xususiyatlari uning funksiyalari va amaliy faoliyatida ifodalanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyat hayotiga ta’siri darajasi haqida gap ketganda, shubhasiz, ularning o‘ziga xos faoliyat turlarini hisobga olish kerak.

Agar davlat va jamiyat o‘z oldiga nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tobora kengayib borishi orqali demokratik islohotlarning samaradorligi va uzluksizligini ta’minlashdek keng ko‘lamli maqsadni qo‘ygan bo‘lsa, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini bugungi kunning o‘zidayoq quyidagi yunalishlar doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiq ko‘rinadi:

fuqarolik jamiyati tuzilmaviy institutlarining asosiy ro‘yxatiga kiritilgan nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalda oshirishdir;

jamiyatda demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etishdek muhim jarayon haqida gapirganda, bu borada siyosiy partiyalar oldiga qo‘yilayotgan muhim vazifalarni alohida ta’kidlab o‘tmasdan bo‘lmaydi. Ular fuqarolarning, alohida ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning shaxsiy manfaatlarini birlashtiradi, so‘ngra aniq umumiy manfaatlarni shakllantirish orqali jamiyat manfaatlarining umumiy uyg‘un modelini amalga oshirishga hal qiluvchi hissa qo‘shadi;

ayni paytda O‘zbekistonda o‘z dasturiy faoliyatini amalga oshirayotgan siyosiy partiyalar mamlakatimizni yanada jadal rivojlantirish sohasida fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishning muqobil siyosiy yo‘llarini ifodalashning samarali vositasi bo‘lib kelmoqda. Ular amaldagi qonunchilikda belgilangan doirasida, shuningdek, muayyan partiyaning dasturiy maqsad va vazifalariga muvofiq bevosita shakllantirilgan siyosiy jarayon doirasida faoliyat yuritadi.

Tadqiqotchilar samarali fuqarolik jamiyatini shakllantirish va faoliyat yuritishning prinsipial muhim tamoyillaridan biri sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan amaliy jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni qayd etadilar. Shu munosabat bilan faol fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolarning ro‘y berayotgan voqealarga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining har bir xodimida uning faoliyati jamoatchilik nazorati ostida ekanligi tuyg‘usini shakllantirish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Respublikada jamoat birlashmalarini faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish amaliyotining birinchi qadami 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonuni hisoblandi[31].

Shu asnoda, Respublika hayotida aholini ijtimoiy himoyasi, ta’lim, ilmfan, yosh avlodni tarbiyalash, madaniyat va san’at, sog‘liqni saqlash, shuningdek, tarixiy, ma’naviy qadriyatlar masalalarini hal qilishda mustaqillikning ilk yillardan boshlab turli darajadagi jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil etildi. Bulardan “Ulug‘bek” nomidagi respublika iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi[32], “Navro‘z” hayriya jamg‘armasi[33], Respublika “Mahalla” hayriya jamg‘armasi[34], “Mehr-shafqat va salomatlik”, “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armalari[35], Ijodkor yoshlarning “Iste’dod” Respublika jamg‘armasi[36], “Umid”, “Ustoz”, “Oltin meros”, O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-

[31] Ўз МА М 37-жамғарма, 1-рўйхат, 3921-иш, 38-варақ:, Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991. №4.

[32] “Улуғбек” номидаги республика иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш жамғармасини ташкил етиш тўғрисида”ги 1990 йил 14 мартдаги 137-сонли қарори

[33] Ўз МА М 80-жамғарма, 1-рўйхат, 3489-иш, 8-9-варақ. Ўз МА М 37-жамғарма, 1-рўйхат, 3482-иш, 8-варақ.

[34] “Республика Маҳалла хайрия жамғармасини ташкил етиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Рсепубликаси Президентининг 1992 йил 12 сентабрдаги фармони.; Ўз МА М 37-жамғарма, 1-рўйхат, 2569-иш, 8-варақ.

[35] “Соғлом авлод учун” ҳукуматга қарашли бўлмаган ҳалқаро хайрия жамғармасини ташкил етиш тўғрисида”ги 1993 йил 3 июндаги қарори.

[36] “Ижодкор ёшларнинг “Истеъдод” Республика жамғармасини тузиш тўғрисида”ги 1993 йил 4 майдаги фармони ПФ-601.

quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armalari[37] faoliyat ko‘rsata boshladi. Respublikada jamoat tashkilotlarini muntazam o‘sib borish jarayoni endilikda ularni faoliyatini takomillashtirishni talab qiladigan yangi qonun hujjatlariga ehtiyoj tug‘ila boshlanganligidan dalolat berardi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida “Hozirgacha turli xil hayriya jamg‘armalari va ijodiy uyushmalar o‘z vaqtida progressiv bo‘lgan “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunga suyanib siyosiy hayotimizni demokratlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, bugungi kun talablariga javob bera olmaydi. Bugungi kunda bitta qonun emas, jamoat tashkilotlari, jamg‘armalar, ularning jamiyat siyosiy tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatini belgilab beradigan, davlat ishlarini ta’sirini kuchaytirib beradigan butun bir qonunlar tizimiga ehtiyoj sezmoqda”[38], – deb ta’kidlab o‘tadi.

Jamiyatni demokratlashtirish masalasida faol bo‘la boshlagan bunday tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy jihatlarini mustahkamlashni talab etardi. Bu borada 1997–1998-yillarda yangi qonun loyihasini jadallik bilan ishlab chiqishni davr taqazosiga aylantirdi. Jamoat tashkilotlari tom ma’noda yangi qonun doirasida birlashtirilishi va bu qonun bunday tashkilotlarning rivojlanishi imkoniyatlarini kengaytirishi lozim hisoblanardi. 14-aprel 1999-yilda “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”[39]gi qonun amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati mustahkamlanishi va rivojlanishining muhim omili bo‘ldi.

Ushbu qonun nodavlat notijorat tashkilotlarining ko‘p qirrali faoliyatini huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy-texnik qo‘llab-quvvatlash, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishning yaxlit tizimini belgilab berdi.

Qonunda, jumladan, quyidagi masalalar tartibga solingan: nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlarini berish (faoliyat erkinligi, axborotlardan foydalanish, mulkchilik huquqi); ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi (davlat subsidiyalari, grantlar berish va boshqalar)[40]. Jamiyatda olib borilayotgan islohotlar negizida qabul qilingan qonun va qarorlarni muntazam takomillashtirish va rivojlanish asosida nodavlat notijorat tashkilotlarni faoliyatlarini ham qayta ko‘rib chiqish, ularni yanada takomillashtirish davr talabiga aylana boshladi. Bu o‘z navbatida ularni faoliyatlarini ham takomillashtirishni talab etardi.

---

[37] Ўзбекистон фахрийларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш “Нуроний” жамғармаси тўғрисида”ги 1996 йил 4 декабрдаги фармони.

[38] Ўз МА М 37-жамғарма, 1-рўйхат, 1311-иш, 5-варақ

[39] Ўз МА М 80-жамғарма, 1-рўйхат, 908-иш, 6-варақ.; Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелда қабул қилинган “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги 763–I-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил, №5, 115-модда; 2004 йил, № 5, 90-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 йил, № 12, 608-модда; 2008 йил, № 12, 640-модда; 2012 йил, № 4, 106-модда); Индина И., Индина Й.Е., Завалишина И. Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкилотларига солиқ солиш ва уларнинг бухгалтерия ҳисоби. – Тошкент: DEKORPELIG AF, 2003. – Б. 9.

[40] http://oldconf.neasmo.org.ua/node/2357; https://www.lex.uz/acts/1101278

2007-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi[41] Qonuni qabul qilinadi. Uning ahamiyali jihati shundaki, mazkur qonun tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, barcha nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati kafolatlarini tartibga soladi, xususan, ularning qonun hujjatlari bilan belgilangan quyidagi: faoliyat erkinligi huquqi, axborotdan erkin foydalanish huquqi va mulk huquqi (5–7-moddalar)ni kafolatlaydi. Bu huquqlar kafolatlari nazarda tutilgan barcha moddalarda ushbu huquqlar davlat muhofazasidadir.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy va ustuvor xususiyati, unda nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat tomonidan qo‘llabquvvatlanishi shakli subsidiyalar, grantlar va bevosita nodavlat notijorat tashkilotlar o‘rtasida joylashtiriladigan ijtimoiy buyurtmalar ko‘rinishida mustahkamlab qo‘yilgan[42].

Nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishi, ijtimoiy sherikchilik hisoblanadi. Bunda har ikki tomon, ya’ni davlat va nodavlat tashkilotlar insonlar farovonligini yaxshilash yo‘lida harakat qiladilar va birlashadilar. Shu o‘rinda davlat uchun murakkab bo‘lgan yoki nodavlat notijorat tashkilotlarga keng miqyosda a’zo bo‘lgan aholi qatlamining qo‘llab-quvvatlashi orqaligina masalani yechish imkoni bo‘lganda bu tashkilotlarga yo‘l beradi va jamiyatdagi ayrim ijtimoiy masalalarni yechish huquqini aynan bu tashkilotlarga yechish huquqini beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarni moliyaviy muammolarini yechishda yordamga berilgan pullar (subsidiyalar)dan foydalanishni yanada kengaytirish hamda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish masalasida davlatning ijtimoiy buyurtmalarini yana ko‘paytirish mexanizmlarini qo‘llash orqali ularni samaradorligini oshirish eng yaxshi sinalgan usullardan biridir. Jahon amaliyotida, xususan, O‘zbekistonda ham muhim sanalgan usul, nodavlat notijorat tashkilotni davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmlaridan bo‘lmish, davlat subsidiyalari, davlat grantlari va davlatning ijtimoiy buyurtmalari hisoblanadi[43]. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida[44]”gi Qonuni bu tashkilotlarni davlat tomonidan qo‘llab turilishini ko‘zda tutadi, ushbu qo‘llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlarini (parlament komissiyasi va mazkur komissiya qoshidagi ijtimoiy jamg‘arma orqali) belgilab beradi, davlat subsidiyalari, davlat granti va davlatning ijtimoiy buyurtmasi kabi tushunchalar mohiyatini ochib beradi.

Umuman olganda, davlat organlari faoliyatining jamoat tashkilotlari bilan munosabatlari kabi muhim yo‘nalishida davlat organlari tomonidan tizimli nazoratni amalga oshirish muhim ko‘rinadi. Gap fuqarolik jamiyatining nodavlat

---

[41] Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 1-2-сон, 2-модда; 2008 й., 51-сон, 500-модда). // Халқ сўзи, 4 январь 2007 йил. № 3 (4156).

[42] http://oldconf.neasmo.org.ua/node/2357

[43] https://lex.uz/docs/1101278

[44] Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 1-2-сон, 2-модда; 2008 й., 51-сон, 500-модда). // Халқ сўзи, 4 январь 2007 йил. № 3 (4156).

notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari va boshqa muhim yo‘nalishlari kabi zarur institutlari haqida bormoqda. Demokratiyani rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarda davlat siyosatini oydinlashtirish, davlatning xalq oldidagi hisobdorligi kabi jihatlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yuqorida qayd etilgan institutlar orqali jamoatchilik bilan aloqasi muhim o‘rin tutadi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi *“Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazorati tizimini erkinlashtirishdagi vazifalari”* deb nomlanadi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida mahalla nufuzini qayta tiklash va yanada rivojlantirish masalasi muhim masalaga aylandi.

1999-yil 14-aprelda “Nodavlat-notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2013-yil 12-dekabrda “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori, 2015-yil 15-yanvarda “Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi. NNTlarning jamiyat hayotida ta’sirini kuchaytirish, faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 21-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida “Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o‘ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e’tiborini qaratib, o‘zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun mamlakat va hududlar darajasida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklikni keng yo‘lga qo‘yib, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ko‘paytirishimiz lozim”.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 10 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, “Sog‘lom avlod uchun”, “Mahalla”, “Nuroniy”, “Vaqf”, Amir Temur, Ibn Sino, “Sen yolg‘iz emassan” xayriya jamg‘armalari, “Ijod” fondi, O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlar Milliy Assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o‘tish lozim.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida mahalla nufuzini qayta tiklash va yanada rivojlantirish masalasi muhim masalaga aylandi. Mahalla instituti faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti “Mahallaga shunday sharoit tug‘dirib berish kerakki, toki unda yashaydigan har qaysi inson o‘z huquqini yaxshi bilsin va mahallaga suyanib, mahallaning vakolatlaridan foydalanib, o‘z huquqini himoya qilishga qodir bo‘lsin”[45], deb fikr bildirgan edi. Darhaqiqat, mahalla faoliyatini har tamonlama takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi, sohaga oid prinsipial jihatdan yangi tuzilma shakllantirildi, mahalliy hokimiyat organlari qayta tashkil etildi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi rivojlantirildi. Bu sohada olib borilgan amaliy ishlar to‘g‘risida to‘xtalib Respublika Prezidenti Sh. Mirziyoyev: “Islom Karimov fuqarolik

[45] Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – Б. 101.

jamiyati institutlarini shakllantirish, ayniqsa, davlat va jamiyat boshqaruvida mahallaning nufuzini oshirish, uning vakolatlarini kengaytirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirdi”[46], deya ta’kidlagan edi. 1991–2016-yillarda O‘zbekistonda yangi jamoat tashkilotlari va demokratik institutlar paydo bo‘ldi[47] va rivojlanib bordi. Buni nodavlat-notijorat tashkilotlari (NNT) misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, 1991-yilda mamlakatda jami 100 ta NNT faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2015-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari tomonidan ro‘yxatga olingan NNTlarning umumiy soni 8200 tadan ortib ketdi[48].

Mustaqillikka qadar O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatiga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat hayotida mavjud ijtimoiy, iqtisodiy muammolarning yig‘ilib qolishi, hayotiy ehtiyojlarni faqatgina davlat tomonidan hal etish imkoniyati mavjud emasligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotida NNTlar ishtiroki hamda ta’siri yildan yilga oshmoqda. Xususan, 2020-yil holatiga ko‘ra respublikada turli sohalarda 9700 dan ortiq nodavlat-notijorat tashkilotlari va 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar va 1500 dan ortiq OAVlar faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekistonda demokratik-huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining bosh yo‘nalishlaridan biri davlatning bir qator vakolatlarini mahalliy davlat organlariga, jamoat tuzilmalariga va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishdan iborat. Bu jarayonda, xususiy mulkni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, iste’mol bozorini to‘ldirish, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish masalalari, birinchi navbatda, mahalliy davlat organlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan hal etilishi belgilandi. SSSRdan ajralib chiqqan mamlakatlardan farqli o‘laroq O‘zbekiston o‘z hayotini tashkil etish va rivojlantirish qobiliyati katta. Faqat bir qancha zarur ijtimoiy institutlar, muayyan iqtisodiy, siyosiy madaniy, ijtimoiy tuzilmalar borki, ularsiz biror jamiyatni modernizatsiyalash mumkin emas[49]. Ushbu fikrini davom ettirgan taniqli siyosatchi L. Levitin O‘zbekistonda siyosiy institutlar bilan bir qatorda ijtimoiy institutlar faoliyatini takomillashtirish, ta’lim va fan, mustaqil sud hokimiyati, ommaviy axborot vositalari erkinligini ta’minlash muhim ekanligini alohida qayd etdi. 1994-yilda 12 mingdan ortiq o‘zini o‘zi boshqarish organlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yilda 7847 tani tashkil etgan. 2021-yilning boshlarida 9216 ta fuqarolar yig‘inlari faoliyat olib bormoqda[50]. Mahallalar sonining doimiy o‘zgarib turishi O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish, muvofiqlashtirish zaruriyatidan va tizimda olib borilgan doimiy o‘zgarishlar hamda islohatlar natijasidir. O‘zbekiston Respublikasi

[46] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг қўшма мажлисидаги нутқ. 2016 йил 8 сентябрь.
[47] Новейшая история Узбекистана (1991–2016). – Ташкент: Фан, 2019. – С. 7.
[48] Ўзбекистон Республикасида нодавлат-нотижорат ташкилотларини давлат томонидан рўйхатга олиш масалалари бўйича амалий қўлланма. –Тошкент: Art Flex, 2015. – Б. 12.
[49] Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида Президент Ислом Каримовтарафдорининг танқидий мулоҳазалари. – Тошкент, 2001. – Б. 311.
[50] Маҳалла ва оила вазирлигининг 2021 йил биринчи чораги ҳисоботларидан.

Oliy Majlisi palatalarining 2005-yil 28-yanvarda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida mamlakatimizni isloh qilishning muhim ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Bunda o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo‘mitalari va qishloq fuqarolar yig‘inlarini nufuzini oshirish, vakolatlarini amalda kuchaytirish islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi alohida qayd etildi[51].

Mahalla O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-madaniy hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy institutlar orasida eng xalqchil bo‘lgan noyob institut bo‘lib, turli davrlarda o‘zbek xalqi milliy qadriyati sifatida o‘z tarixiy o‘rniga ega bo‘ldi. Mustaqillik yillarida mahalla institutini rivojlantirish va takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratilib, mahalla instituti faoliyatini takomillashtirish, moddiy texnik bazasini rivojlantirish, vakolat va vazifalarini kengaytirish maqsadida qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Istiqlol sharoitida mahalla institutining ijtimoiy nufuzini yuksaltirish siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ulkan tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida o‘zini o‘zi boshqarish konstitusiyaviy maqomga ega bo‘ldi (32, 105-moddalar). Ayni vaqtda, O‘zbekiston Konstitusiyasi asosida o‘zini o‘zi boshqarishning huquqiy asoslarini, o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tuzish tartibi va ularning vakolatlarini belgilovchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, qabul qilindi[52]. Mahalla instituti faoliyatining takomillashuvi davlat mustaqilligining ilk yillaridan boshlandi. 1991-yil 12-sentabrdagi Farmonga me’yor muvofiq “Mahalla” respublika xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. 1993-yil 1-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Jamg‘armaning vazifalari sifatida tarixan tarkib topgan an’ana va odatlarni asrab-avaylashga va boyitishga har tomonlama yordam berish; har xil an’anaviy marosimlar o‘tkazish; mehr muruvvatni qaror toptirish hamda o‘zaro yordamni tashkil etish; juda muhtoj oilalar va alohida shaxslarga tekin moddiy yordam ko‘rsatish; mahallalar hududini obodonlashtirish; mahallaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga yordam berish kabi masalalar belgilandi. Milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida “Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi” deb ta’kidlangan.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi”[53], deb ko‘rsatib o‘tildi. Shundan kelib chiqib, 1993-yil 2-sentabrda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi[54]. Ushbu Qonun ma’lum

[51] Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 181.
[52] Жалилов Ш. Ўзбекистон Республикасининг ўзини ўзи бошқариш ҳуқуқи. –Тошкент, 2007. – Б. 11.
[53] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2017. – Б. 60.
[54] Маҳалла – ўзини ўзи бошқариш органи. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 5.

muddat amalda bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohatlar natijasida mazkur Qonunga 1997-yil 25-aprelda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, 1999-yil 14-aprelda Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Shu bilan birga, yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o‘z aksini topdi.

2010-yil 12-noyabrda “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan[55]. Bu vazifalarni hal qilishda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir”[56], deb belgilangan edi. Shundan kelib chiqib, 2013-yil 22-aprelda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o‘zaro yordam, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odatlar va an’analarni hisobga olishdan iboratdir”[57], deb belgilangan. 2015-yil 1-yanvarda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirdi. Bu, o‘z navbatida, davlat va jamiyat ijtimoiy hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarlishiga xizmat qilmoqda. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlash kabi eng muhim vazifalarni hal etishda fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini yanada kuchaytirdi[58].

Qonunga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar fuqarolar yig‘inlari faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish, aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirilganligi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Birgina so‘nggi besh yilda yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

[55] Каримов. И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрда ўтказилган қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” мавзуидаги маърузаси ҳамда мамлакатни демократик янгилаш ва модернизация қилишда Олий Мажлис Сенати, маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг ролини кучайтириш борасидаги 2010 йилга ва кейинги йилларга мўлжалланган вазифалар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Қарори. https://lex.uz/docs/2947919. (15.01.2019)

[56] Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 й.12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 45.

[57] Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни (янги таҳрири). 2013 йил 22 апрель, 5-модда. https://lex.uz/docs/2156899. (17.03.2020)

[58] Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасива Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2015 йил 24 январь.

to‘g‘risida”gi hamda “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin Nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi.

Mahalla boshqaruvi milliy va davlatchiligimiz tajribasidan kelib chiqib, rais, ya’ni oqsoqol tomonidan amalga oshirilmoqda. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rais (oqsaqol)lari dastlab 2,5 yilga saylangan bo‘lsa, 2018-yil 27-sentabrda Senat tomonidan ma’qullangan “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) fuqarolar yig‘ini tomonidan, fuqarolar yig‘inini chaqirish imkoni bo‘lmagan taqdirda esa, fuqarolar vakillarining yig‘ilishi tomonidan uch yilga saylanadi[59] deb belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-fevraldagi O‘RQ-1027-son Qonuni bilan tahrirdagi “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 8-moddasi matni talablaridan kelib chiqib: “Fuqarolar yig‘ini raisi fuqarolar yig‘ini tomonidan, fuqarolar yig‘inini chaqirish imkoni bo‘lmagan taqdirda esa, fuqarolar vakillarining yig‘ilishi tomonidan besh yilga saylanadi”. Bu muddat esa, o‘z navbatida, raislarga o‘zi saylangan hudud aholisi farovonligini oshirishda islohotchilik va tashabbuskorligini to‘la namoyon etish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida 100 dan ortiq ekologik sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonda Ekologik harakat jamiyat siyosiy hayotida muayyan yangilik bo‘lib, mamlakatimiz davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan dadil qadamlar bilan borayotganligining yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ekspertlarning fikricha, mamlakatni demokratik asosda rivojlantirish, inson erkinliklari, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat organlarining faoliyatini tizimli nazorat qilishdan iboratdir. Fuqarolar nodavlat notijorat tashkilotlari tarkibida o‘zining keng huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshiradilar.

O‘zbekiston ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan jadal o‘zgarishlar nodavlat notijorat tashkilotlari oldiga yangi mas’uliyatli vazifalarni qo‘yayotgani muqarrar. Ular orasida fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi, qonun talablariga bo‘ysunuvchi shaxs sifatida qonun talablariga ijobiy munosabatni shakllantirish kabi vazifalarni alohida ta’kidlash joiz.

Dissertatsiyaning III bobi **“O‘zbekistonda kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi faoliyati”,** deb nomlanib, uning paragrafi *“Kasaba uyushmalarining zamonaviy O‘zbekiston siyosiy hayotidagi o‘rni”*, deb ataladi. O‘zbekistonda kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 6-dekabrdagi, O‘RQ–588-son “Kasaba

[59] “Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2018 йил 15 октябрь. https://lex.uz/docs/3988421.

uyushmalari to‘g‘risida“gi Qonuni kasaba uyushmalari qo‘mitalarining mahalliy organlar, tashkilotlar rahbariyatlari bilan hamkorlikda tarmoq xodimlarini ijtimoiy himoyalash borasida keng imkoniyatlarni ochib berdi[60].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar xalqimiz turmush darajasini oshirish, yanada farovonlikka erishish va kelajak poydevorini mustahkamlashdir. Bu jarayonda yuqorida izohlanayotgan kasaba uyushmalari ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar mavjud: 1. Kasaba uyushmasi. 2. Boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkiloti. 3. Kasaba uyushmalarining birlashmasi. 4. Kasaba uyushmasining bo‘linmasi[61].

2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalarini hal qilishda ishtirok etishga bo‘lgan huquqqa ega: kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo‘linmalari va boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlari aholi bandligini ta’minlash, ishdan ozod etilayotgan xodimlarni himoya qilish masalalarini, shuningdek, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish huquqiga ega.

Kasaba uyushmalari – mehnatkashlarni jinsi, diniy e’tiqodi, irqiy va milliy mansubliklaridan qat’i nazar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va o‘z a’zolari manfaatlarini himoya qilish maqsadida birlashtiruvchi ommaviy jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 6-dekabrdagi, O‘RQ–588-son “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga binoan, ushbu qonunning maqsadi fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqini amalga oshirish, shuningdek, kasaba uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

“Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan kasaba uyushmalarini tashkil etish va ularning faoliyati, fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqlarini ro‘yobga chiqarish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Qonun loyihasini ishlab chiqishda uchta asosiy manbaga, ya’ni milliy qonunchilik va amaliyotga, xorijiy davlatlar tajribasiga hamda sohaga doir xalqaro huquqiy hujjatlarga tayanilgan.

Kasaba uyushmalari mamlakatdagi eng ommaviy va a’zolari soni ko‘p bo‘lgan jamoat tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda 14 ta sohaviy kasaba uyushmalari 32,4 mingdan ortiq boshlang‘ich tashkilotlarga egadir. Bugun Yangi O‘zbekiston jamiyatining rivoj topishida kasaba uyushmalari

[60] ЎзМА, М 107-жамғарма, 1-рўйхат, 51-иш, 2-варақ.
[61] Ўзбекистон Республикасининг “Касаба уюшмалари тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-588-сон., 06.12.2019.

faoliyati ham muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar rivojlanishida kasaba uyushmalari yetakchi pozitsiyada turadigan tashkilot hisoblanadi.

Kasaba uyushmalariga mehnat, unga haq to‘lash va boshqa masalalarni hal qilish sohasida huquqlar berilgan. Kasaba uyushmalarining nizomlari “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi. Barcha kasaba uyushmalari teng huquqlardan foydalanadilar.

Kasaba uyushmasi qo‘mitalari faoliyatidagi asosiy ko‘rsatgichlardan biri O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni bajarilishini nazorat qilishdan iborat.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi faoliyat turi bo‘yicha umumiy manfaatlar bilan birlashgan xodimlar, qisman ish bilan band bo‘lganlar yoki vaqtincha ishsizlar, talabalar va o‘quvchi yoshlar, pensionerlar, aholi boshqa qatlamlarini birlashtirgan kasaba uyushmalarini o‘z ichiga oladi va o‘zini o‘zi boshqaradigan ko‘ngilli nodavlat, notijorat jamoat tashkiloti hisoblanadi.

Kasaba uyushmalari o‘z ustavlarida qayd etilgan maqsad va vazifalarga muvofiq belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, tijorat tashkilotlarini tashkil etish, noshirlik faoliyati bilan shug‘ullanish, turli fondlar tuzish huquqiga ega. Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tarmoq xodimlarining, o‘quvchi yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilishga irishishni nazorat qilishni bosh maqsad qilib belgilaganlar[62].

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi faoliyat turi bo‘yicha umumiy manfaatlar bilan birlashgan xodimlar, qisman ish bilan band bo‘lganlar yoki vaqtincha ishsizlar, talabalar va o‘quvchi yoshlar, pensionerlar, aholi boshqa qatlamlarini birlashtirgan kasaba uyushmalarini o‘z ichiga oladi va o‘zini o‘zi boshqaradigan ko‘ngilli nodavlat, notijorat jamoat tashkiloti hisoblanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi *“Siyosiy partiyalarning kelib chiqishi, vazifalari va turlari”* deb nomlanadi. Bugungi zamon jamiyatlarining siyosiy hayoti murakkab va ziddiyatli bo‘lib, unda ko‘p sonli ishtirokchilar, ya’ni siyosat subyektlari ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalarni haqli ravishda ko‘rib chiqilayotgan jarayonning eng nufuzli ishtirokchilaridan biri deb atash kerak. Deyarli barcha zamonaviy mamlakatlarda partiyalar mavjud; partiyalar yuqori raqobatbardosh ko‘ppartiyaviy tizimning ishtirokchilaridir; X. Odilqoriyevga ko‘ra, siyosiy partiyalar zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim mahsullaridan biridir, chunki ular ta’rifiga ko‘ra, eng siyosiylashgan jamoat tashkilotlari bo‘lib, demokratiyani ta’minlash, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda mamlakatning barqaror va jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi[63].

[62] ЎзМА, М 107-жамғарма, 1-рўйхат, 51-иш, 2-варақ.
[63] Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 151.

Jahondagi siyosiy partiyalar va koʻppartiyaviylik tizimi amaliyoti muayyan ijtimoiy guruh va qatlamlarga xos xususiyat hamda ularning manfaatlarini ifoda etib kelayotgani bois globallashuv jarayonlari kechayotgan soʻnggi yillarda ham dunyoning rivojlangan mamlakatlarida koʻppartiyaviylik tizimi tobora oʻz maqomini mustahkamlab bormoqda. Dunyoning demokratik mamlakatlarida davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarning koʻppartiyaviylik asosida oʻtkazilishi belgilab qoʻyilgan. Shu bois, partiyalararo sogʻlom raqobatni kuchaytirish, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ta'sirini oshirish, siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi vakolatlarini kengaytirib borish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Siyosiy partiyalarning paydo boʻlishi va jahon ijtimoiy-siyosiy tizimida oʻziga xos oʻrin tutishi, shubhasiz, demokratiyaning yuksak tantanasidir. Partiyalarning tarixi va rivojlanish omillarini oʻrganish mamlakatimizda koʻppartiyaviylik tizimini rivojlantirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, siyosiy partiyalarning tarixi bir necha yuz yilliklar bilan oʻlchanadi hamda ularning shakllanishi ancha uzoq va murakkab jarayonni oʻz ichiga oladi. Hozirgi koʻrinishdagi partiyalar va ularning zamonaviy mohiyati Yevropadagi burjua inqiloblari natijasida yuzaga kelgan boʻlsa-da, mazmunan partiyaga monand guruhlar, uyushmalar insoniyat tarixining qadimgi davrlarida ham ma'lum boʻlgan[64].

Dastlab "shaxslar yoki narsalar guruhi" degan ma'noni anglatuvchi "partiya" soʻzi fransuz tilidan olingan. Bu tilda fransuz tilidagi "partiye"ning ildizlari lotincha *"partis*" – "qism" otiga oʻtadi, oʻz navbatida bu soʻz *"partiri"* – "boʻlish" fe'lidan olingan.

Bugunga kelib siyosiy partiyalar dunyoning rivojlangan davlatlarida xalq bilan hokimiyat oʻrtasida asosiy bogʻlovchi boʻgʻin boʻlgan demokratik institutga aylangan. Binobarin, siyosiy partiya jamiyatning guruh yoki qatlamning maqsad va manfaatlarini ifoda etuvchi, uni umumdavlat va umummillat manfaatlari bilan uygʻunlashtirgan holda faoliyat koʻrsatadigan, rivojlanishning siyosiy yoʻnalishlarini aniqlab beradigan siyosiy tashkilot hisoblanadi.

Siyosiy partiyalar muayyan siyosiy dastur asosida faoliyat koʻrsatadi. Aynan ma'lum bir partiya dasturida tasdiqlangan vazifa va maqsadlar asosida jamiyatning ma'lum sinflari, qatlamlari va guruhlari birlashtiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar toʻgʻrisida"gi Qonunida shunday tarif berilgan: "Siyosiy partiya Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini roʻyobga chiqarishga intiluvchi hamda oʻz vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi koʻngilli birlashmasidir"[65]. Siyosiy partiya xalqdan yoki davlat hokimiyatidan ustun turadigan kuchli tashkilot boʻlishi

[64] Djumayev B.A. Oʻzbekistonda siyosiy partiyalar faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari.: Siyosiy tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) … diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B. 12.

[65] Oʻzbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar toʻgʻrisida"gi Qonuni. 1996-yil 26-dekabr, 337-I-son.

mumkin emas. Ular davlat bilan xalq o‘rtasidagi vositachi bo‘lib, xalqning siyosiy madaniyati yuksalishiga xizmat qiladi.

Ma’lumki, siyosiy partiyalar ta’rifiga ko‘ra butun jamiyat manfaatlarini ifoda eta olmaydi. Ular jamiyatdagi muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlam manfaatlari vakillaridir. Lekin ayrim hollarda siyosiy partiyalar mamlakat aholisining ozmi-ko‘pmi, katta qismi manfaatlari himoyachisi sifatida ham harakat qilishi mumkin. Ularning siyosiy dasturlarida e’lon qilingan maqsad va vazifalar muayyan siyosiy partiyaning ijtimoiy negizi bo‘lgan aholining muayyan guruh va qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining IV bobi **“O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy soha islohotlarida jamoat tashkilotlarining o‘rni”,** deb nomlanib, uning birinchi paragrafi *“Ayollar jamoat tashkilotlari va ularning jamiyat rivojidagi o‘rni”* deb nomlanadi. O‘zbekistonda jamoat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilganligi va bu holat jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanmoqda. Ushbu omil inobatga olinib, O‘zbekistonda turli tarixiy davrlarda jamoat tashkilotlari faoliyatini ochib berilgan.

Ayollarning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy holati mustaqillikning dastlabki yillarida og‘ir ahvolda ekanligini ko‘rish mumkin. 1991–1995-yillar mobaynida ish o‘rinlarini qisqartirilishi natijasida respublikada ishsiz qolganlarni 65% xotin-qizlarni tashkil etardi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu ko‘rsatkich qishloq joylarda yuqori bo‘lib qoldi. Ishsizlikning asosiy sababi xotin-qizlarni kerakli mutaxassislik bo‘yicha kasbga va yetarli malakaga ega emasligi bilan bog‘liq edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan ijroiya hokimiyat idoralarida rahbar o‘rinbosari lavozimlaridan biriga ayollar vakili tayinlanadi. Bu o‘z navbatida ayollar masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi. O‘zbekistonda 1991-yildan 2000-yilgacha bo‘lgan davrda ayollar nodavlat notijorat tashkilotlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishining ilk bosqichi bosib o‘tildi .

2000-yilga kelib respublikada, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri miqyosida ro‘yxatga olingan 91 ta ayollar nodavlat notijorat tashkiloti o‘z faoliyatlarini olib bordilar, deb ta’kidlaydi Yu. Asminkin. Eng yirik uchta ayollar tashkilotlari hisoblangan O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston ishbilarmon ayollari “Tadbirkor ayol” assotsiatsiyasi, O‘zbekiston xotin-qizlar “Olima ayollar” uyushmalari geografik jihatdan ham, a’zolarining soni jihatidan ham eng yirik tashkilotlarga aylanganligini e’tirof etish lozim. Ushbu tashkilotlarning deyarli barcha viloyatlarda filiallari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi O‘zbekistonning barcha hududlari bo‘yicha viloyatlar va tumanlarda o‘z faoliyatiga ega. Qo‘mita davlat tashkilotlari, vazirliklar, hokimiyat va idoralar, mehnat jamoalari, oliy o‘quv yurtlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar bilan ijtimoiy sherikchilik asosida o‘z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay tabiiy muhitni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu sohadagi vazifalar va mamlakatda ekologik holatni barqarorlashtirish muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli dasturlar davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari va fuqarolarning birgalikdagi sa’y-harakatlarini yanada mustahkamlashni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “... biz suv resurslari taqchilligi, ichimlik suvi sifatining yomonlashuvi, tuproqning degradatsiyaga uchrashi, bioxilma-xillikning keskin kamayishi, jiddiy iqlim o‘zgarishlarini yaqqol sezib turibmiz. ... Biz umumiy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, ushbu fojia oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo‘yidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mintaqaning suv va ekologiya bilan bog‘liq muammolariga yechim topish bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni birlashtirimiz lozim”, – deya ta’kidlagan edi. Shu bois mamlakatda atrof-muhit muhofazasi, ekologik holatni sog‘lomlashtirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb masalaga aylangan[66].

Shu bilan birga mazkur davrda mamlakatdagi islohotlarga hamohang ravishda nodavlat notijorat tashkilotlarining barcha hududlarda, hususan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida faoliyati kuchaydi. NNTlar faoliyati asosan davlat tuzilmalari bilan hamkorlikda ekologik ta’lim, madaniyat bo‘yicha qator ishlarni olib borish, aholining xabardorligi, ekologik holat sifatining yaxshilanishi, atrof-muhit holati monitoringi va turli masalalari bo‘yicha turli loyiha va tadbirlarni amalga oshirish hamda mazkur masalalar bo‘yicha keng jamoatchilikning qatnashishi va qarorlar qabul qilinishini ta’minlashga qaratildi.

Ekologik ta’lim va barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo‘yicha maqsadli dasturlarga asosan NNTlar ta’lim muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida uzluksiz ekologik ta’lim dasturlari yuzasidan hamkorlikda faoliyat olib bordi. Mazkur yo‘nalishda NNTlar va tashabbuskor guruhlardan “Ekologik toza Farg‘ona uchun”, “Ekomaktab”, “Rodnichok”, “Yosh ekoparlament” birlashmasi, “Shans Eko Plyus” OAJ, Bolalar ekologik klublari Assotsiatsiyasi va boshqa maktab ekologik klublari faol ish olib borishdi.

To‘plangan ko‘p yillik tajribalar asosida 2005 yilda respublikaning barcha hududlaridagi 150 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlarning tashabbuslari bilan O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlar Milliy Assotsiatsiyasi tashkil etildi[67]. Hozirgi kunga kelib Assotsiatsiya o‘z saflarida mamlakatning 500 dan[68] ortiq eng faol nodavlat sektori vakillarini birlashtirib, turli loyihalarni amalga oshiruvchi g‘oyatda salohiyatli mexanizmga aylandi. Assotsiatsiyaning faoliyati

[66] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркманистоннинг Туркманбоши шаҳрида бўлиб ўтган Оролни қутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлар раҳбарлари мажлисидаги нутқи. // http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-turk-24-08-2018

[67] ЎзННТМА ЖА. Ассоциациянинг Экология йўналиши доирасидаги фаолияти юзасидан маълумот. – Тошкент, 2012.

[68] http://ngo.uz/biz-a-imizda/znntma-a-ida-is-acha-ma-lumot-2

quyidagi 4 yo‘nalishda olib boriladi: Ayollar va yoshlar yo‘nalishi; Huquqiy yo‘nalish; Ekologiya, iqtisod va ta’lim yo‘nalishi; Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish.

2017 yilning may-sentabr oylarida “Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyot va atrof-muhit hamkorligi” loyihasi doirasida O‘zbekistondagi ekologik jamoat tashkilotlarining faoliyati tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2012–2016-yillar davomida ekologik jamoat tashkilotlari soni 129 tadan 92 taga tushgani aniqlangan. Buning asosiy sababi ayrim jamoat tashkilotlarining aniq istiqbolli rejalarni belgilamagan holda faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi bilan bog‘liqligi mutaxassislar tomonidan qayd etiladi[69].

